



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yilida 7-sinf II yarim
yillik uchun jahon tarixi fanidan

DARS

ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili 7-sinf jahon tarixi fanidan II yarim yillik
taqvim mavzu rejasi

| № | O‘tiladigan mavzular rejasi | Nazariy soat | Dars o‘tkazish muddati | Dars o‘tkazilgan sana |
|-----|---|--------------|------------------------|-----------------------|
| 1. | Hindiston – “ming ajoyibotlar mamlakati”. (Loyiha ishi mavzusini va baholash mezonini e‘lon qilish) | 1 | | |
| 2. | Xitoy – “Osmonosti imperiyasi”: yuksalish va tanazzullar | 1 | | |
| 3. | Koreya o‘rta asrlarda | 1 | | |
| 4. | Kunchiqar mamlakat – Yaponiya o‘rta asrlarda | 1 | | |
| 5. | Amerika o‘rta asrlarda | 1 | | |
| 6. | O‘rta asrlarda xristian olamida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar | 1 | | |
| 7. | Salib yurishlari | 1 | | |
| 8. | Salib yurishlari | 1 | | |
| 9. | BSB - 2. (50 ball) Loyiha ishi taqdimoti | 1 | | |
| 10. | Yevropada o‘rta asr shaharlarining o‘ziga xosligi | 1 | | |
| 11. | Yevropada o‘rta asr shaharlarining o‘ziga xosligi | 1 | | |
| 12. | Osiyoning o‘rta asr shaharlari | 1 | | |
| 13. | Yevropaning o‘rta asrlar madaniyati | 1 | | |
| 14. | Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati | 1 | | |
| 15. | Xitoy, Koreya, Yaponiya va Hindiston xalqlari madaniyati | 1 | | |
| 16. | Xitoy, Koreya, Yaponiya va Hindiston xalqlari madaniyati | 1 | | |
| 17. | CHSB – 2. (40 ball) | 1 | | |
| 18. | Yakuniy umumlashtiruvchi dars | 1 | | |

| | | | | |
|--------------|--|--|--|--|
| Sana: | | | | |
| Sinf: | | | | |

Mavzu: Hindiston – “ming ajoyibotlar mamlakati”. (Loyiha ishi mavzusini va baholash mezonini e’lon qilish)

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: darsda yangi tarix voqealari bilan, o’rta asrlar tarixining bir qismi bilan tanishtirish. Jahon va O’zbekiston xalqlarining qadimgi tarixini o’qib o’rganish. Insoniyat tarixini davrlashtirish tamoyiliga ko’ra, G’arbiy Rim imperiyasining qulashi bilan jahon tarixida O’rta asrlar davri boshlanishi to’g’risida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: o’quvchilarni mustaqil ishlashga o’rgatish, Sharq va G’arb mamlakatlari xalqlari diplomatik, savdo va madaniy aloqalar tufayli ishlab chiqarish, ilm-fan va madaniyat yutuqlaridan o’zaro tushuntirish. Dunyoning turli hududlarida o’ziga xos o’rta asrlar sivilizatsiyalari vujudga keloshi, bilimlarini boyitish va yangi bilim berish, jahon xalqlarining keyingi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo’lish. Jumladan, dunyoning turli hududlarida yirik markazlashgan davlatlar tashkil haqida tushuntirish.

Rivojlantiruvchi: o’quvchilarga jahon tarixining eng qiziqarli, shu bilan birga, murakkab davrini o’rgatish, bu davrda dunyoda katta o’zgarishlar yuz bergani, ishlab chiqarishda monopolistik kapitalizm qaror topgani, turli xil sindikatlar, kartellar, konsemlar yuzaga kelgani haqida tushuncha berish.

O’quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o’z fikrini og’zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to’g’ri qo’ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o’zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish.

O’zini o’zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida doimiy ravishda o’z-o’zini rivojlantirish, jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish; o’z xatti-harakatini adekvat baholash:

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

orasta kiyinish, yurish turishda madaniy me’yorlarga va sog’lom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega bo’lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an’analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo’lish;

o’zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o’zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an’ana va marosimlarini hurmat qilish;

xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o’rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo’lish hamda foydalanish kompetensiyasi: kompetensiyasi

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o’qiy olish va foydalanish; inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shartsharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo’lish.

Darsning metodi: og’zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o’zi uchun.

Nazorat: o’quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o’quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

| № | Bo’limlar | Vaqti |
|-------------|---|------------------|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O’tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O’quvchilarni rag’batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

Sizga ma'lumki, Hindistonning aksariyat qismi Kushon imperiyasi tarkibiga kirgan. U yemirilgach, hind rojalaridan biri Chandragupta (320–340) Guptalar sulolasiga asos soladi. Uning vorislari davrida Hindiston jamiyatida yer egaligiga asoslangan feodal tuzum shakllanib bordi. Guptalar imperiyasi IV–V asrlarda Arabiston dengizigacha bo'lgan hududlarni birlashtirgan. Yevropa, Osiyoning ko'plab mamlakatlarida bo'lgani kabi, Gupta hukmdorlarining ham yer-mulklar in'om etishlari natijasida amaldorlar va harbiylardan iborat yirik yer egalari toifasi paydo bo'ldi, ular aholidan soliqlar yig'ishdan tashqari, dehqonlar mehnatidan foydalanish huquqini ham qo'lga kiritganlar. Hindistonda dunyoning boshqa mamlakatlarida uchramaydigan kasta tuzumining qadimgi an'analari saqlangan edi. Natijada qishloq jamoasining turli tabaqalarga mansubligi uning xususiy mulki oz yoki ko'p ekanligi bilan o'lanmay, shaxsning qaysi kasta toifasiga mansubligi bilan belgilangan. Hindistonda ilk tabaqalanish tartiblari qadimgi oriyalar istilosidan so'ng rojaliklar tashkil topish davriga borib taqaladi. Kishilar kastalarga ma'lum belgilar: me'rosiy kasb-kor, etnik va diniy mansubligi, urf-odatlar xilma-xilligi va boshqalar asosida bo'lingan. Kasta a'zolarini avvalo kasb birlashtirgan, u esa otadan bolaga o'tgan. Bir kastadan boshqasiga o'tish va turli kasta vakillari orasidagi nikoh qoralangan. O'rta asrlarning boshlanish davrida Hindistonda qulchilik ham saqlanib qolgan. Qullar ko'p hollarda uy xizmatkorlari bo'lishgan. Hinduiylik dini aqidalariga ko'ra, qul mehnatidan dehqonchilik yumushlarida foydalanish ham mumkin bo'lgan. Xo'jayin qulni yegulik bilan ta'minlashdan tashqari, yiliga bir marta kiyim-bosh olib berishlari talab qilingan. Guptalar imperiyasi siyosiy jihatdan mustahkam emas edi, shuning uchun VI asrda mamlakat shimoli-g'arbdan kelgan eftaliylar hujumlari natijasida parchalanib ketadi.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. O'rta asrlarda Hindistonning birlashuviga qanday omillar halaqit bergan?
2. G'arbiy Yevropa ritsarlari va hind rojalari o'rtasidagi o'xshashlik hamda tafovutlarni jadval tuzib qiyoslang.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

| | | | | |
|--------------|--|--|--|--|
| Sana: | | | | |
| Sinf: | | | | |

Mavzu: Xitoy – “Osmonosti imperiyasi”: yuksalish va tanazzullar

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: darsda yangi tarix voqealari bilan, o’rta asrlar tarixining bir qismi bilan tanishtirish. Jahon va O’zbekiston xalqlarining qadimgi tarixini o’qib o’rganish. Insoniyat tarixini davrlashtirish tamoyiliga ko’ra, G’arbiy Rim imperiyasining qulashi bilan jahon tarixida O’rta asrlar davri boshlanishi to’g’risida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: o’quvchilarni mustaqil ishlashga o’rgatish, Sharq va G’arb mamlakatlari xalqlari diplomatik, savdo va madaniy aloqalar tufayli ishlab chiqarish, ilm-fan va madaniyat yutuqlaridan o’zaro tushuntirish. Dunyoning turli hududlarida o’ziga xos o’rta asrlar sivilizatsiyalari vujudga keloshi, bilimlarini boyitish va yangi bilim berish, jahon xalqlarining keyingi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo’lish. Jumladan, dunyoning turli hududlarida yirik markazlashgan davlatlar tashkil haqida tushuntirish.

Rivojlantiruvchi: o’quvchilarga jahon tarixining eng qiziqarli, shu bilan birga, murakkab davrini o’rgatish, bu davrda dunyoda katta o’zgarishlar yuz bergani, ishlab chiqarishda monopolistik kapitalizm qaror topgani, turli xil sindikatlar, kartellar, konsemlar yuzaga kelgani haqida tushuncha berish.

O’quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o’z fikrini og’zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to’g’ri qo’ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o’zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

Jamiyatda bo’layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish; o’zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo’lish hamda foydalanish kompetensiyasi: kompetensiyasi

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o’qiy olish va foydalanish;

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shartsharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo’lish.

Darsning metodi: og’zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o’zi uchun.

Nazorat: o’quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o’quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.


Darsning borishi:

| № | Bo’limlar | Vaqt |
|-------------|---|-----------|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O’tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O’quvchilarni rag’batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

- konfutsiylik, daosiylik, buddaviylik ta’limotlari;
- Xitoydagi yer egaligi munosabatlari;

- shaharlar, hunarmandchilik va savdning yuksalishi haqida

Mil. avv. V asrda Xitoyda donishmandlar – Konfutsiy va Lao-szilarning axloqiy-siyosiy va diniy-falsafiy ta’limotlari qaror topgan. Insonlar orasidagi munosabatlarda xitoyliklar konfutsiylik ko‘rsatmalariga rioya qilganlar: unga ko‘ra, inson uchun eng muhimi insoniylikni saqlab qolish bo‘lgan. Buning uchun ajdodlar yaratgan marosimlarga (odob qoidalariga) qat’iyan, og‘ishmasdan amal qilish tavsiya etilgan. Agar vafot etgan marhumni shoyi matodan tikilgan kiyimda dafn etish aytilsa, yaqin qarindoshlari oxirgi pullariga bir burda non emas, aynan shoyi gazlamani sotib olishgan. Har bir kishi jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, kattalarga quloq solish, kichiklar haqida g‘amxo‘rlik qilishga intilgan. Konfutsiylik tarbiyaviy asarlar orqali imperatorni (Osmon o‘g‘lini) xalqni insonga muhabbat ruhida boshqarish, ezgulikka ezgulik, yovuzlikka esa adolat bilan javob berishga undagan. III asrda Xan imperiyasi inqirozga uchrab, mamlakat zaiflasha boshlagach, shimol va g‘arbdan ko‘chmanchi turkiy qabilalarning hujumlari kuchayadi. Natijada Xan imperiyasi uchta podsholikka parchalanib ketadi. Biroz vaqt o‘tgandan so‘ng uch podsholik davri tugab, mamlakat yagona davlatga birlashadi. Biroq shimoliy dashtlarning ko‘chmanchi qabilalari IV–V asrlarda Xitoy hududiga qarab siljiy boshlashi natijasida, mamlakatda siyosiy tarqoqlik hukm surib, imperiya ko‘plab o‘zaro raqobatdagi podsholiklarga bo‘linib ketadi. Ulardan biri Vey podsholigi bo‘lib, uning poytaxti Loyan shahri edi. Bu sulola davrida Xitoyda yer egaligi munosabatlari rivojlanib, davlat chek yer tizimi shakllana boshlaydi. Unga ko‘ra, imperator mamlakatdagi barcha yerlarning egasi hisoblanib, yerni dehqonlar oilasiga — undagi mehnatga yaroqli kishilarning soniga qarab — taqsimlab bergan. Buning evaziga dehqonlar o‘zlari yetishtirgan hosilning bir qismini soliq sifatida davlatga to‘lashlari kerak bo‘lgan. Qator islohotlar o‘tkazganligiga qaramay, Vey sulolasi ham Xitoydagi siyosiy tarqoqlikka barham bera olmagan. Mamlakatga ko‘chmanchilarning hujumi davom etib, Turk xoqonligining bosqini xavfi kuchaygan.



Bunday sharoitda konfutsiylik va daosiylik donishmandlari o‘z hotirjamligini yo‘qotgan odamlarni tinchlantira olmaydilar. Ularga umid beruvchi so‘zlar Hindistondan kelgan buddaviylik rohiblaridan chiqadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

O‘rta asrlarda Xitoyning shimol va shimoli-g‘arbidagi qo‘shnilari – ko‘chmanchi xalqlar bilan munosabatlari qanday kechgan?

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

38 listdan iborat 7-sinf jahon tarixi fanidan II yarim yillik konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**